



## MILLIY TA'LIM VA MA'NAVIY TARBIYADA EPOSLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Maxsuda Yusupboyevna Karimova**

*Prezident ta'lim muassasalari agentligi*

*tizimidagi Urganch shahar 1-son*

*ixtisoslashtirilgan maktab-internatining*

*oliy toifali ona tili va adabiyoti fani*

*o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

*+99 897 510 15 56*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada eposlarning ta'lim- tarbiya rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritilgan. Eposlarning xalqimiz urf-odatlarini asrlar osha yetkazuvchi manba ekanligi tahlil qilingan. Xususan, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, taraqqiyotida folklorshunos olim, professor Safarboy Ro'zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, soha rivojiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot bo'yicha maqola muallifi mushohada yuritib, o'zbek xalq eposlarining milliy tarbiyadagi o'rni va jahon folklorshunosligidagi muhim o'rni masalalari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Epos, "Alpomish", "Go'ro'g'li " eposlari, xalq baxshilari, urf-odat va an'analar axloqiy- ma'naviy tarbiya, nazariy va amaliy kitoblar, o'qilishi zarur kitoblar, doston variantlari, doston versiyalari*

Har bir xalqning voqelikka o'z estetik munosabati mavjud. Bunday munosabat asotirlar, ertaklar, maqol-matallar va birinchi galda yirik hajmali epik asarlarda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shu ma'noda dostonlar faqatgina xalqining shonli o'tmishini hikoya qiluvchi adabiy yodgorlikkina emas, bugungi kunda tobora globallashib borayotgan jamiyatda o'zligini saqlab qolishning muhim omili, ertangi kun taraqqiyoti uchun tagzamin vazifasini o'taydi .

Xalq urf-odatlarini bilmay turib o'zbekman deyish mumkin emas. Bu o'zbek millatiga mansub insonning o'z xalqi yuziga oyoq qo'ygani, ota- bobolari hurmatini haqoratlagan bo'ladi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan dostonlar asrlar osha bizga yetib kelgan urf-odatlarimiz, yuksak insoniy fazilatlar guldastasidir.

Dunyoda badiiy jihatdan mukammal, hajm jihatdan katta asarlar yaratgan xalqlar bor, ammo ko'p emas. "Manas", "Kolevala" shular jumlasidandir. O'zbek xalqimiz tomonidan yaratilib, asrlar osha sayqallangan "Alpomish", "Go'ro'g'li " dostonlari ham ana shunday kam sonli dostonlar qatoridan munosib o'rin olgan.

Milliy folklor namunalari asrlar osha dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilmogda. Ana shu hissa tufayli bashariyat ma'naviyati shakllanib yuksalmogda. Bunday nomoddiy xazinamizda mavjud betakror asarlarda



xalq qalbidagi nozik hissiyotlar va faqat insonga xos bo'lgan oliyanoblik qoidalari – insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ezgulikka undovchi urf-odatlarimizning aks ettirilishi xalqimizning azaldan dunyoda madaniyatli millat ekanligidan dalolat beradi.

Mortimer J. Adler, Charlz Van Dorenning "Kitoblar qanday o'qiladi" asarida kitoblar nazariy va amaliy kitoblarga ajratiladi. Yoriqnomalar, axloqiy didaktik asarlar amaliy kitoblarga kiritiladi. Jozibali va ta'sirchan nutqqa ega bo'lish va uning insonga o'zaro kirishuvchanlik uchun zarurligi haqida fikr bildiriladi. [Mortimer J. Adler, Charlz Van Doren. "Kitoblar qanday o'qiladi" / Tarjimon J.Qodirov. Mas'ul muharrir I.Salimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi,2022. – 428-b.]

Har qanday axloqiy risolada notiqlik yoki yuksak insoniy fazilatlar haqida so'z yuritilishi o'sha asarning amaliy ahamiyati sifatida ko'rsatiladi.

Rossiya federatsiyasi ta'lim va fan vazirligi tomonidan mamlakat tarixi, madaniyati va adabiyoti bo'yicha har bir o'quvchi mustaqil o'rganishi kerak bo'lgan 100 ta kitobni tavsiya qilingan. Ro'yxatdagi kitoblar 5000 dan ortiq asarlar ichidan tanlab olingan. Ro'yxatga turkiy xalqlar og'zaki ijodining durdonalaridan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas", Ural botir" dostonlari ham kiritilgan. Yuztalik ro'yxatning 13 tasini eposlar, doston va solnomalar tashkil qiladi. [Tojialiyev D. "Kitob haqida kitob"[Matn ]: ilmiy-ommabop / Toshkent: "Akademnashr", 2021. – 216-b.]

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xalqimiz donoligi – folklor durdonalarimiz dunyo miqyosida o'zining munosib bahosini olgan.

Tarqalish hududi jihatidan juda katta hududni qamrab olgan "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari O'rta Osiyo, umuman, Sharq va Kavkaz xalqlari og'zaki poetik ijodida muhim o'rin tutadi. Dostonning asosiy obrazi Go'ro'g'li turkiy xalqlarning milliy qahramoni sifatida hamisha xalqni yuksak ideallar sari chorlab kelgan. Xalqni birlashtiruvchi ezgu quvvat manbaiga aylangan. [Sh. Turdimov."Go'ro'g'li " dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari"/ Toshkent/ "Fan" nashriyoti/ 2011/ 240 b.]

Tom ma'noda "Go'ro'g'li " o'zbek xalqining mifo-epik tarjimai holidir. Badiiy tarzda tarixiy xotirasidir. O'zbek xalqining qadimiy hayoti, ko'hna tasavvurlari, badiiy tafakkurining taraqqiyot yo'li boshqa ma'naviy qadriyatlar qatorida "Go'ro'g'li" dostonlarida ham namoyon bo'ladi.

Professor Safarboy Ro'zimboyev tinimsiz mehnatlari va folklorshunoslik tadqiqotlariga sidqidildan yondashganligi natijasida Xorazm folklor maktabi yuqori pog'onaga ko'tarildi. O'tgan asrning 20 – 30-yillarida folklor namunalari to'plash, yozib olish boshlangan bo'lsa ham, o'sha paytda Xorazm dostonlari juda kam o'rganilgan. Xorazm dostonlari bo'yicha, ayniqsa, taniqli folklorshunos, professor Safarboy Ro'zimboyev rahbarligida va bevosita ishtirokida amalga oshirilgan ishlar o'zining salmoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Olim Safarboy Ro'zimboyev va uning hamkorlarining izlanish va tadqiqotlari natijasida "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi yigirma ikki dostonni (ulardan to'rttasi variant), ishqiy-romanik dostonlardan



yigirma to'qqiztasini (ulardan oltitasi variant) yetti kitobga jamlab, nashr etdilar. Bu dostonlarning kattagina qismi Safarboy Ro'zimboyevning o'zi tomonidan baxshi va xalfalardan yozib olingan. Yetuk folklorshunos olimning soha rivojiga qo'shgan hissasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori To'ra Mirzayevning e'tirofini keltirishimiz fikrimiz dalili bo'ladi. "Keyingi yillarda o'zbek folklorshunosligida Xorazm dostonlarini nashr etishda Jumaniyoz Qobulniyozov boshlagan ishlar izchil davom ettirildi. Jumladan, marhum folklorshunoslar Malik Murodov va Nasrulla Saburovlar "Gulruxpari" (1967), "Qorasoch oyim" (1970), Zubayda Husainova "Qirq minglar" (1992) dostonlarini nashr etdilar. Ayniqsa, taniqli folklorshunos, professor Safarboy Ro'zimboyev rahbarligida va bevosita ishtirokida amalga oshirilgan ishlar o'zining salmoqdorligi bilan alohida ajralib turadi. Safarboy Ro'zimboyev va uning hamkorlari "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi yigirma ikki dostonni (ulardan to'rtitasi variant), ishqiyy-romanik dostonlardan yigirma to'qqiztasini (ulardan oltitasi variant) yetti kitobga jamlab, nashr etdilar. Bu dostonlarning kattagina qismi Safarboy Ro'zimboyevning o'zi tomonidan baxshi va xalfalardan yozib olingan. Mehnatkash olim Safarboy Ro'zimboyev va uning shogirdlari bajargan bu ulkan nashrda, mening nazarimda, Xorazm dostonlarini chop etishni boshlab bergan taniqli folklorshunos Jumaniyoz Qobulniyozovning ham yorqin siymosi mujassamlanganday ko'rinadi. Aslida katta ishlarning debochalari qaysi bir davrda kimlardir tomonidan boshlanadi, boshqalar uni yangi sharoitda yanada mukammal ravishda davom ettiradilar. Fandagi tadrijiylik, avlodlar zanjirining uzviyligi shundan. Xorazm folklorini o'rganishda Jumaniyoz Qobulniyozov ulkan boshlovchi edi, professor Safarboy Ro'zimboyev esa, bu sohaning munosib va yirik davomchisi bo'ldi. Gapning rostini aytganda, ellik bir dostonni to'plab, nashrga tayyorlash, ularni so'zboshi, zarur izoh va ma'lumotlar bilan ta'minlab, yagona muqovalarda chop etish chindan ham ilmiy jasoratdir. Mening nazarimda, Safarboy Ro'zimboyev faoliyati ana shunday yuqori bahoga loyiqdir". [To'ra Mirzayev, O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2014, №6, 102-bet.]

Bola, asosan, oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi hisoblanadi. Har bir shaxsni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo, yaxshi o'qishi va yozishni o'rganishi, atrofdan qabul qilib oladigan axborotlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishi, erkin, mustaqil fikrga ega bo'la olishi kerak. Farzand tarbiyasiga bunday yondashuv xalq pedagogikasi deb umumiy nom ostiga birlashtirib aytishimiz mumkin bo'lgan eposlarimizda ham o'z ifodasini topgan.

Xalqimiz yosh avlodni hayotga tayyorlashda asrlar davomida turli xil usul va vositalar, tadbir va shakllarda, o'ziga xos urf-odat va an'analarda axloqiy- ma'naviy tarbiyani amalga oshirganlar. Shaxs kamolotida axloqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etgan.



Har bir qabila va elat o'zi uchun axloq qonun-qoidalarini yaratgan. Insoniylik ideal axloq qonuning asosi hisoblanadi. Ota- bobolarimiz axloqiy tarbiyada Shiroq, To'maris, Alpomish, Murodxon, Ravshan kabi afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlardan foydalanganlar. Ular asosida yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga vatantaparvarlikka undaganlar. Shaxsni barkamol qilib tarbiyalashda mehnatsevarlik, do'stlik, ahillik mehr-oqibat, jasurlik va kezi kelganda jangovarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratganlar. Bu tamoyilning xalq pedagogikasida alohida o'rin egallashi xalqimizda yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lish azaliy qoida ekanligini ko'rsatadi.

"Xalqning vatanparvarlik, elga hurmat, uning tinchligi, osoyishtaligi uchun g'amxo'rlik qilish, ma'rifatli bo'lish, ma'naviy kamolot uchun qayg'urishi, ayniqsa, u yaratgan dostonlarda yorqin ifodalanadi. Buni Markaziy Osiyo xalqlari ijodining yorqin namunasi "Alpomish" va qirg'iz eposi "Manas"da ko'rish mumkin". [Zunnunov, A. /Pedagogika tarixi–Toshkent: "Sharq", 2002.– 19- b]

O'zbek folklorida doston janri o'zining buyuk obida ekanligi, monumentalligi va ko'p qirraliligi bilan alohida ajralib turadi. Shu sababli uni faqat professional ijrochi-baxshigina kuylay oladi. Xalq eposlari aynan xalq san'atkorlari hisoblanmish – baxshilar irolari orqali avlodan-avlodga yetib kelgan. Baxshilar o'zlarining yuksak xotirasi, xonandalik qobiliyati, burro nutqi, Xudo bergan iste'dodi orqali dostonlarimizni ma'naviy boylik sifatida ming yillar davomida sayqallanib avlodan avlodga yetkazilishida muhim o'rin egallaydi.

Baxshilar repertuarida "Go'ro'g'li" turkumi shahobchalari, "Oshiq " dostonlari asosiy o'rinni egallaydi. Ularning aksariyati qo'lyozma qissa -dostonlar orqali o'zlshtirilgan. Biroq og'zaki badihago'ylik ham batamom barham topmagan. Og'zaki variantlar xalqona iboralar, yumoristik lavhalar, so'z oyinlari bilan boyitilgan. Xalq dostonlarining yosh avlodga yetkazilishi va anglatilishida baxshi -ijrochilarning hissasi beqiyos.

Adabiyot – millatning ma'naviy qiyofasi va ruhiy qudratining ifodasi, ma'rifiy takomil, milliy til imkoniyatlarini namoyon qiladigan va uning boyliklarini saqlab qoladigan hamda boyitadigan vositadir. Badiiy adabiyot estetik va ma'naviy ta'sir orqali o'quvchilarda odamiylik, halollik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantiradi, ularning shaxsiyatiga tarixiy xotira, o'z xalqi va butun insoniyatga daxldorlik tuyg'ularini singdiradi. Folklor namunalarini o'qitish o'quvchilarda bilish, kommunikativ, go'zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Folklor namunalarini o'rganish va adabiyot o'qitishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni inobatga olish lozim: adabiyot o'qitishda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan ayrim metodik yondashuvlardan voz kechib o'quvchini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashimiz kerak. Ya'ni eposlarni o'rganishda loyihalash metodidan foydalanilsa, o'quvchining o'zi mustaqil tadqiqotchi sifatida



izlanishiga yo'l ochgan bo'lamiz. Loyiha ishtirokchilaridan musiqaga ishtiyoqmandlari ham o'z iste'dodlarini namoyish qilishiga imkon beriladi.

Motivatsion xarakterdagi muammolar. Hozirgi davrda ta'lim oluvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishi, kitobxonlik saviyasi sezilarli darajada pasaygan. Bu esa millat intellektual va hissiy qudratining pasayishiga olib keladi. Bu ko'ngilsiz holatga adabiy ta'limdagi bo'shliqlar, muammolarning mavjudligi ham ma'lum darajada sababdir. Yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib etishga hukumat darajasida e'tibor qaratilayotgani bejizga emas. Maqsad – umuman, aholini, xususan, yoshlarni badiiy asar o'qishga qaytarish. Bunda adabiyot o'qituvchisi eposlarda milliy qadriyatlarimizning ifodalanishiga bag'ishlangan loyihalarga ta'lim oluvchilarni jalb qilsa, yosh avlodda eposlarga qiziqish oshardi.

O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini asrash uchun yosh avlodda o'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalashimiz lozim. Shundagina vatanimizning jahon hamjamiyatida sha'ni uchun mas'uliyatni his qila oladigan chinakam yetuk shaxsni kamol toptirgan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi

1. Abdurauf Fitrat. "Adabiyot qoidalari". Adabiyot muallimlari ham adabiyot havaslilari uchun qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi" – 1995. 112 bet. (Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi filologiya fanlari nomzodi Hamidulla Boltaboyev)

2. "Go'ro'g'li" Xorazm dostonlari (nashrga tayyorlovchi S. Ro'zimboyev) – Urganch "Xorazm" nashriyoti, 2004.

3. Rozimboyev S.R. "Saylanma" /Xotiralar, risolalar, maqolalar, badiiy asarlar /- Urganch – 2012. –265b.

4. Mortimer J. Adler, Charlz Van Doren. "Kitoblar qanday o'qiladi" / Tarjimon J. Qodirov. Mas'ul muharrir I. Salimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 480b.

5. Madayev, O. /Xalq og'zaki poetik ijodi / –Toshkent: "Sharq", 2001.– 208 b.

6. Mirzayev T, O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2014, №6, 102-bet.

7. "Oshiqnoma". 1-kitob.– Urganch: "Xorazm".–2006.–B.350.

8. "Xorazm folklori" X tom Urganch –2008

9. Sabirova N. "Xorazm baxshi va xalfachilik an'analari"– monografiya. O'R FA "Fan" nashriyoti. Toshkent.–2021. - 250b.

10. Tojialiyev D. "Kitob haqida kitob"[Matn ]: ilmiy-ommabop / Toshkent: "Akademnashr", 2021. – 240 b.

11. Zunnunov, A. /Pedagogika tarixi–Toshkent: "Sharq", 2002.– 192 b.



12. Sabirova N. "Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari" / "3RD International Azerbaijan Congress on Humanities and social sciences" / November 26-28,2022. – Congress proceedings book ISBN: 978- 605-72169-1-5

13. Sh. Turdimov."Go'ro'g'li "dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari"/ Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2011.–240 b.